

## DARSLARDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Niyazova Mahbuba Satvoldiyevna

*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar*

*2-son kasb-hunar maktabi Informatika va AT fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Zamon rivojlanib borgan sari kompyuter texnologiyalari ham hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelmoqda. Ta'lim sistemasi ham bundan chetda emas. Ushbu maqolada dars jarayonlarida elektron darsliklardan foydalanish orqali darslarning sifati oshirish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *dars, elektron darslik, ta'lim, kompyuter, kompyuter savodxonlik, dars sifati, dastur, ta'lim, axborot.*

Globalashuv asrida har bir soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, har qanday davlatning xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishi va istiqboli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq.

Ta'lim – tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan – komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

XXI asrda malakali pedagog bo'lish uchun albatta axborot texnologiyalarini yaxshi egallash zarur. Inson faoliyati ko'proq uning axborotga ega bo'lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ixtiyoriy soha bo'yicha zamonaviy mutaxassis vaqt sayin oshib borayotgan axborot oqimida bemalol yo'l topa olishi uchun, u kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalari yordamida tegishli axborotni ola bilishi, qayta ishlay olishi va undan foydalana olishi kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi. Ta'lim sifati nafaqat o'quv jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa ta'lim natijalari hamda mazkur omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish hamda uni hayotga tayyorlashga



yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dars samaradorligini oshirishda o'quv vositalarining ahamiyati juda kattadir. Bularga darsliklar, o'quv qo'llanmalari, radio eshittirishlari, televideniye ko'rsatuvlari, gazeta va jurnallar, elektron darsliklar, kodoskop, proyeksion rangli rasmlar, slaydlar, kompyuterlar, hamda o'qitishning barcha zamonaviy texnik vositalari, tajribalar o'tkazish uchun jihozlar, kundalik kuzatish daftari, maktab o'quv-tajriba maydonchasi kiradi.

Darslar samaradorligi o'qitish uslublari to'g'ri tanlanganida va ularni ko'rgazmali qurollar, o'quv vositalari bilan uyg'unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O'qitishning zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish dars samaradorligini ta'minlaydi va o'quv mehnati intensivligini hamda o'quv jarayoni texnik madaniyatini oshiradi.

O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida mashg'ulotlarga jiddiy tayyorlangan, yangiliklardan boxabar bo'lgani holda dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Dars berayotgan faniga taalluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, shuningdek, ularni darslarida qo'llay olish, faoliyatini muntazam yangilab borishi davr talabidir. Dars jarayonida elektron muhitdan foydalanish – ta'lim sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Ta'lim tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlangan o'quv adabiyotlar, ovozli variantlar va video ishlanmalar orqali olinadi. Elektron darslik esa bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib borishga mo'ljallangan bo'lib, ixtiyoriy fanlar bo'yicha yaratiladi.

**Elektron darslik** – bu davlat ta'lim standarti asosida mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha fanlarning alohida bo'limlariga oid nashrlar, namunaviy va ishchi o'quv dasturi, shuningdek, mashqlar va masalalar to'plami bo'yicha video ishlanmalar, turli sxemalar, atlaslar, tajriba ishlar yuzasidan ko'rsatmalar, testlar va boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Rasmiy asnoda olib boriladigan “Elektron darslik” bo'yicha barcha materiallar birinchi navbatda mavjud standartlarga mos bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda bir necha xil elektron darslik tayyorlash imkonini beruvchi beruvchi dasturlar mavjud. Oddiy HTML dan foydalanib matn muharrida xam tayyorlash mumkin. Sbook Builder dasturi, C++, avto play media, lektor, java,



Book Maker, Maestro FREE, COORS LAB, MACROMEDIA FLASH kabi dasturlar elektron darsliklar yaratishga imkon beradi.

Elektron darslik samarador bo'lishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim:

-Mavzu matnini tushunarli va mantiqiy usulda tuzish, o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun illyustratsiya va chizmalardan foydalanish;

-O'quvchilarga tushunarli, ravon va qiziqarli elektron darslik yaratish uchun ularning yoshi, fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda misollar tuzish va fikrlar qo'llash;

-Elektron darslik strukturasi, modullar va ularga tegishli bilimlarni qisqa hamda xulosa qismi bilan o'zaro teran bog'lash;

-Elektron darslikni predmet dasturiga to'la mos keladigan va uni to'laligicha qoplaydigan shaklda yaratish;

-Elektron darslikka kiritiladigan materiallarni o'ziga xos va betakrorligini, o'quv predmetiga va o'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olish;

-Mazmunning aniqligi, interfeys va dizaynning qulayligi, ranglarning mosligi, matnning bexatoligini ta'minlash;

-Elektron darslikka o'quvchilarni berilgan material ustida ishlashga va amalda qo'llashga undovchi topshiriqlar kiritish.

Elektron darsliklardan foydalanishning afzalligi va kamchilari bilan tanishib o'tamiz.

Afzalliklari:

1. O'quvchining bilim olish samarasi ortishi.
2. Hamkorlik.
3. Vaqtdan unumli foydalanish.
4. Mustaqil bilim olish.
5. Nazariya va amaliyot uyg'unligi.
6. Faollik va darsga bo'lgan qiziqishning ortishi.
7. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishi.

#### **KAMCHILIKLARI:**

Auditoriyalar kompyuter bilan jihozlanmagan bo'lsa;

O'qituvchi kompyuter va EXM bilan ishlashni bilmasa;

Talaba kompyuter va EXM bilan ishlashni bilmasa;

Elektr tarmog'i ishlamay qolsa;

Kompyuterga virus tushsa;

O'qituvchi matematik paketlardan foydalanishni bilmasa elektron darsliklar samara bermaydi.



Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida AKT va elektron darsliklardan foydalanish:

- dars samaradorligini oshirishni ta’minlashda;
- ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish;
- o’quvchini har tomonlama rivojlantirish;
- axborot jamiyati sharoitlarida maktab bitiruvchilarini hayotga tayyorlash;
- global axborotlashtirish jarayonlari sababli kelib chiquvchi ijtimoiy buyurtmani bajarish kabi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Darslarda elektron darsliklardan foydalangan holda dars mashg’ulotlarini o’tkazish dars sifatini oshiradi, o’quvchilarda quyidagi ko’nikmalarni hosil qiladi:

Kompyuter savodxonligi rivojlanadi, darsda bilim olishga bo’lgan qiziqishini oshiradi, axborot madaniyatining shakllanishi, o’quvchilarning bilim saviyasining oshishi, darsni ikki tomonlama olib borilishi, bilimi past o’quvchilarning darsga qiziqishining oshishi, o’quvchilarni baholashning osonlashishi va boshqalar. Bular natijada o’tkazilgan dars sifati va samaradorligi ortadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov M.M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.
2. Toyloqov N. va boshqalar. IBM - PC kompyuteri.
3. Xolmatov T.X., Toyloqov N.I., Nazarov U.A. Informatika.
4. [www.google.com](http://www.google.com)
5. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)

